

**“Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyati**  
**yagona aksiyadorining**  
**9-son qarori**

2023-yil 19-iyun  
soat 10:00

Toshkent shahri  
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘qqiz yuz yigirma to‘rt ming uch yuz o‘n besh) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz ovoq beruvchi aksiyalari Jamiyat yagona aksiyadori – “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kvorum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasi hamda jamiyat Ustaviga muvofiq yakka tartibda qabul qilindi va 2023-yilning \_\_\_-iyun kuni yozma shaklda rasmiylashtirildi.

**KUN TARTIBI:**

**“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisining iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha o‘rinbosarini tayinlash.**

**Kun tartibidagi masala yuzasidan:**

Yagona aksiyador tomonidan Isayev Uyg‘un Bahodir o‘g‘li nomzodi jamiyat boshqaruvi raisining iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimiga tavsiya qilindi.

U. Isayevning tarjimai holi va mehnat faoliyati bilan yig‘ilish qatnashchilari tanishtirildi (*ma‘lumotnoma ilova qilinadi*).

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 59-moddasi hamda jamiyat ustavining 10.6-bandi “i” qismiga asosan Jamiyat boshqaruvi raisi va a‘zolarini saylash (tayinlash, yollash) va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolati doirasiga kiradi.

Yuqoridagilarni hamda U. Isayevning arizasini inobatga olgan holda, Isayev Uyg‘un Bahodir o‘g‘lini jamiyat boshqaruvi raisining iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi etib tayinlash va u bilan belgilangan tartibda mehnat shartnomasini (shartnomani amal qilish muddati – 19.08.2023-yilgacha) tuzish taklif qilindi (*U. Isayevning 2023-yil 19-iyundagi arizasi ilova qilinadi*).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jamiyat yagona aksiyadori **qaror qiladi:**


1. Isayev Uyg‘un Bahodir o‘g‘li 2023-yil 19-iyun kundan “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisining iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi etib tayinlansin va u bilan belgilangan tartibda mehnat shartnomasi tuzilsin.

2. Jamiyat nomidan boshqaruv raisining iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi U. Isayev bilan mehnat shartnomasini (shartnomani amal qilish muddati – 19.08.2023-yilgacha) imzolash vakolati yagona aksiyador – “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisiga berilsin.

3. “O‘zkimyosanoat” AJ xodimlar bilan ishlash boshqarmasi (Aripov) Isayev Uyg‘un Bahodir o‘g‘li bilan mehnat shartnomasini o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirsin hamda tasdiqlash uchun kiritisin.

4. Jamiyatning ijroiya organi rahbarligiga tanlov o‘tkazish tartibiga muvofiq jamiyat boshqaruvi raisining iqtisodiyot va moliya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimiga o‘rnatilgan tartibda tanlov e‘lon qilinsin hamda tanlov natijasi bo‘yicha nomzodlardan kelib tushgan takliflar kuzatuv kengashi tomonidan ko‘rib chiqilib, 2023-yil 18-avgust kuniga qadar yagona aksiyadorga kiritilishi ta‘minlansin.

**Jamiyatning yagona aksiyadori**  
**“O‘zkimyosanoat” AJ nomidan**  
**boshqaruv raisi v.b.**

  
**T. Muxamedjanov**